

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2024-yil 20-martdagi “2024-yilda qo‘shimcha o‘tkaziladigan Xalqaro va Respublika miqyosidagi ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar to‘g‘risida”gi 76-sonli buyrug‘i ijrosini ta’minlash maqsadida joriy yil 6-7-may kuni Toshkent tibbiyot akademiyasida **“Otorinolariningologiya, bosh va bo‘yin kasalliklarida tashxislash va davolashga zamonaviy yondashuv”** mavzusida o‘tkazilgan Xalqaro miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumani

HISOBOTI

1. Anjuman mavzusi. “Otorinolariningologiya, bosh va bo‘yin kasalliklarida tashxislash va davolashga zamonaviy yondashuv” “Современный подход к диагностике и лечению в оториноларингологии, заболеваниях головы и шеи”

2. Anjuman maqomi. Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman.

3. Ilmiy-amaliy anjumanni o‘tkazish uchun asos bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, qarorlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari, farmoyishlari yoki boshqa manbalar.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari, farmonlari, Vazirlar Mahkamasining farmonlari va farmoyishlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar va Sog‘liqni saqlash vazirliklarining qator buyruq va ko‘rsatmalari asos qilib olindi.

4. Anjumanning ilmiy yo‘nalishi, maqsad va vazifalari.

Ilmiy-amaliy ma’lumotlar bilan almashish, yetakchi mahalliy va xorijiy olimlar, shuningdek, yosh olimlarning ilmiy yutuqlarini tahlil qilish, muhokama qilish va nashr etish.

O‘zbekistonda otorinolariningologiya sohasida olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlari natijalarini muhokama qilish va bu boradagi xorijiy tajriba bilan tanishish, erta tashxis qo‘yish, zamonaviy davolash, turli kasalliklarning oldini olish va aholi salomatligini mustahkamlash bo‘yicha ilmiy asoslangan chora-tadbirlar ishlab chiqish.

Sog‘liqni saqlash amaliyotiga zamonaviy tibbiyotning integratsiyalashgan texnologiyalaridan foydalangan holda zamonaviy dalillarga asoslangan davolash usullarini joriy etish.

Otorinolariningologiya sohasida xalqaro aloqalarni rivojlantirish, yetakchi universitetlar va ilmiy-innovatsion markazlar bilan samarali hamkorlikni yo‘lga qo‘yish

5. Muhokama qilinadigan muammolar.

Akademiya, institutlar, ilmiy, jamoat tashkilotlarining ilmiy salohiyatidan foydalanish, konferensiya samaradorligini oshirish, otorinolariningologiya sohasi innovasion rivojlanishining istiqbolli yo‘llarini aniqlash.

Oliy ta’lim tizimida tahsil olayotgan iqtidorli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va ularni halqaro integratsion jarayonlarda ishtirokini faollashtirish orqali korporativ innovatsion hamkorlikni mustahkamlashni ta’minlashdan iborat. Ilmiy-tadqiqot

ishlarini olib borayotgan iqtidorli yoshlarning innovatsion g'oyalari va ishlanmalarini tahlil qilish, baholash va rag'batlantirish.

6. O'tkaziladigan anjumanning xalqaro ilmiy-amaliy hamkorlik dasturlari bilan bog'liqligi.

Anjuman iqtidorli yoshlar ishtirokidagi Davlat ilmiy-texnik dasturlar doirasida bajarilayotgan loyihalar hamda xalqaro ilmiy loyihalar bilan uzviy bog'liq.

7. Anjuman natijalaridan kutilayotgan ilmiy, ijtimoiy va iqtisodiy samaradorlik. Anjumanda respublikamizdagi oliy ta'lim tizimida tibbiyot oliygohlarida tahsil olayotgan iqtidorli yoshlarning hamda ilmiy tekshirish institutlarida va tibbiyot muassasalarida faoliyat yuritayotgan shifokor izlanuvchilarning innovatsion g'oyalari va ishlanmalarining ilmiy asoslarini muhokama qilish natijasida ularni ijtimoiy va moliyaviy rag'batlantirish imkonini beradigan ilmiy xulosa va tavsiyalar tayyorlanadi. Shuningdek, anjumanda institutda tahsil olayotgan iqtidorli yoshlarning magistrlik dissertatsiya ishlari natijalari tahlil qilindi.

8. Anjumanda yosh olimlar, magistrlar, mutaxassislar, mustaqil izlanuvchilar, tayanch doktorantlar va doktorantlarning ishtirok etishi.

Mazkur xalqaro anjumanga mahalliy mutaxassislar, sohalarning malakali kadrlari bilan bir qatorda Turkiya, Rossiya Federatsiyasi, Belarus Respublikasi, Qozog'iston va boshqa xorijiy davlatlarning nufuzli oliy ta'lim muassasalari va tashkilotlaridan olimlar va professor-o'qituvchilari ham tashrif buyurdi.

9. Anjumanni o'tkazishda respublikada mavjud soha tashkilotlarining ishtiroki.

Anjumanda tibbiyot va ishlab chiqarish tashkilotlarining yetakchi mutaxassislari va boshqa OO'YU yetuk olimlari, professor-o'qituvchilari va iqtidorli yoshlari hamda ilmiy tekshirish institut va markazlari yosh tadqiqotchilar ishtirok etishdi.

Mamlakatimizda otorinolingologiya uzoq tarixga egadir. Ushbu bebaho ne'mat avloddan-avlodga o'tib, halqning necha ming yillik tajribalari natijasida sayqallanib, bizgacha etib kelgan.

TTA hamda RIOBBKIAM bilan hamkorlikda rejalashtirilgan "Otorinolingologiya, bosh va bo'yin kasalliklarida tashxislash va davolashga zamonaviy yondashuv" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjumani Milliy markazi majlislar zalida 6-may kuni soat 09:00da bo'lib o'tdi.

Toshkent tibbiyot akademiyasi Otorinolingologiya kafedrasini mudiri U.S.Xasanov ilmiy-amaliy anjumanni ochib berdi.

Toshkent tibbiyot akademiyasi Xudayarov Asilbek Anvarovichning (O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vaziri), Boymurodov Shuxrat Abdusalilovichning (Toshkent tibbiyot akademiyasi rektori), Daminov Botir Turg'unpo'latovich (Toshkent pediatriya tibbiyot instituti rektori), Xaydarov Nodir Qodirovichning (Toshkent davlat stomatologiya instituti rektori), Saidov Maqsud Arifovichning (Milliy tibbiyot markazi direktori), Yusupov Azamat Farhadovichning (Respublika ixtisoslashtirilgan ko'z mikroxirurgiyasi ilmiy-amaliy tibbiyot markazi direktori), Abdukayumov Abdumannop Abdumajidovich (Respublika ixtisoslashtirilgan pediatriya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi direktori), Tefik Metin Onerchi (Turkiya), Wolf Jürgen Mann (Germaniya), Tulebayev Rais Kajkenovich

(Qozog‘iston), Lopatin Andrey Stanislavovich (Rossiya) va boshqa qator mehmonlar so‘zga chiqishdi.

Anjuman mavzusidan kelib chiqqan holda TTA professor-o‘qituvchilari, yosh olimlari, klinik ordinatorlar, magistrlar hamda talaba yoshlari o‘rtasida bir-birlari bilan tajriba almashish maqsadida Turkiya, Germaniya, Rossiya Federatsiyasi, Qozog‘iston kabi davlatlar o‘zaro hamkorlikni yo‘lga qo‘yish bo‘yicha kelishib oldilar.

Anjuman davomida ish faoliyati televideniya, matbuot va internet tarmog‘i orqali uzliksiz yoritilib borildi.

Anjumanda mahalliy va xorijiy mutaxassislar, sohalarining malakali kadrlari hamda professor-o‘qituvchilari onlayn va oflayn ishtirok etishdi. Anjumanda 200 dan ortiq ishtirokchilar qatnashdi va 30 dan ortiq ma‘ruzalar tinglandi.

Barcha anjuman qatnashchilariga sertifikat, dastur, tezislar to‘plami, esdalik sovg‘alari, suvenirlar topshirildi.

Anjuman 2024-yil 6-may kuni soat 10.00 da Milliy markazi majlislar zalida olib borildi.

ID: 837 5364 6437

Password: 12345





**Ilmiy ishlar va innovatsiyalar
bo'yicha prorektor**

F.L.Azizova